



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Maxbuba Mirsaidova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11452669>

ARTICLE INFO

Received: 27th April 2024

Accepted: 28th May 2024

Published: 31st May 2024

KEYWORDS

*nutq, nutqiy faoliyat,
nutq o'stirish, bog'lanishli
nutq, kreativ fikrlash.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatlarini rivojlantirish masalasi, og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyati, nutqni egallashda qanday jihatlariga e'tibor qaratish lozimligi aytib o'tilgan.

Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim tizimini yuqori darajada sifat bosqichiga olib chiqish uchun qilinayotgan islohatlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha olgan bilimlarini va o'zlashtirishga ehtiyojini, mehnat ko'nikmalarini, kreativ fikrlash va tashqi olamga ongli munosabatini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib, boshlang'ich ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi.

Yangilanayotgan ta'limda olib borilayotgan ijodiy izlanishlar haqqoniy ilmiy nazariyalarga, jamiyatimizning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitish tizimining nazariy asoslari bilan birgalikda insoniyat rivojlanishining harakatga keltiruvchi kuchlari hamda ularni shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlariga tayangan holdagina muvaffariyatga erishadi. Erishish jarayonida insondan uzliksiz o'qish va izlanish talab qilinadi. Bizga ma'lumki, "harakat" – bu barcha muvaffaqiyatlar uchun asosiy kalitdir.

Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko'rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi.

Inson hayoti sharoitlarini o'zgartiruvchi va insonni o'zini ham o'zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta'limning umumiy asosidir. Ammo ichki munosabatlar, ular o'rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo'lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

Bizga ma'lumki, inson o'z g'oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi. Yaratuvchanlik faqat insonga xos xususiyatdir. Demak, faoliyat - atrof olamga nisbatan insonning o'ziga xos faol munosabatidir. Chunki, insonning hayotda namoyon bo'lishining muhim shakli uning voqea - hodisalarga bo'lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to'planadi, insonda o'z atrofini o'rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma'lum bilimlar egallab olinadi, unda tasavvurning yangi qirralari hosil bo'ladi, bularning natijasida inson faoliyati yanada rivojlanib ravnaq topib boraveradi.

Xuddi shunday, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida ham o'quvchilar o'zlarining nutqiy faoliyatlarini rivojlantirishga harakat qilishadi. Chunki, nutq faoliyat nafaqat o'quvchining so'z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan, bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'ladi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvafaqqiyatli ta'lim olish qurolidir. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy qobiliyatini rivojlantirishda o'qituvchining roli muhim hisoblanadi.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi, bog'lanishli nutqi) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. O'qituvchi nuqtayi nazarida nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi.

Nutqni egallashning qator jihatlari, ya'ni adabiy til normalarini, jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish, o'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirishni o'quvchilarga o'qituvchi asta-sekin o'rgatib boradi.

O'qituvchi o'quvchilarda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirishi, so'z va so'z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish, so'zni talaffuz qilganda urg'uni to'g'ri qo'ya bilish ustida ishlashni, adabiy talaffuz qoidalari, nutqning erkin, ongli ifodalanishi kabi jihatlari alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarning ona tili dasturida gap ustida ishlash asosiy o'ringa chiqarilgan. Gap mazmun va grammatik jihatdan bog'langan so'zlardan tashkil topadi. So'zning ma'nosi esa nutq jarayonidagi gapda aniqlanadi. Bog'lanishli nutqqa oid mashqlarga qo'yiladigan talablar gapning qurilish materiali – so'z ustida ishlashga ham taalluqlidir.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlash va ularning diqqatini yo'l qo'yilgan xatolarga tortish, xatosini to'g'rilash, fikrning ta'sirchanligini yuzaga keltiruvchi so'zlarni topa bilish qobiliyatini o'stirishdir. Ona tili va o'qish darslari bu borada katta imkoniyatlarga ega. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini bayon qilishda chalkashishlaridan, noaniq javoblaridan, ayrim hodisalarni esdan chiqarishidan, taxminiy javoblaridan qoniqish hosil qilmasligi, aniq shakllantirilgan javob va tushuntirishlarini talab qilishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari narsa va hodisalarni to'g'ri kuzatishlari va ulardan asosli xulosalar chiqarishi, nima haqda gapirsalar tushuntirish va asoslashni bilishlari talab etiladi. O'qituvchi "Nima uchun sen bunday deb o'ylayapsan? Bu nima ekanligini isbotlagin. Nima uchun shunday yozilishini asoslab ber" kabi savollarni har bir darsda qo'llab turishi keyinchalik yaxshi samara beradi. O'quvchilar grammatik tahlil va yozma ishlarida ko'pincha shoshilib xulosa chiqarishadi. Natijada o'zlariga zarur bo'lgan tushunchaning mavjud belgilarini unutib xatoga yo'l qo'yadilar. Xususan, qaratqich va tushum, o'rin-payt va chiqish kelishiklarini qo'llashda yo'l qo'ygan xatolarini bilimlari yetishmasligi tufayli ongli tarzda izohlab, asoslab bera olmaydilar. Tahlil tartibi o'quvchilarni fikrini tartib bilan va asoslab berishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning hayotiy tajribalari kam bo'lgani uchun ko'pincha rasmlardan, tevarak-atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish, tabiat qo'yniga ekskursiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilar rasmlar asosida fikrini izchil ifoda etishga o'rgatiladi.

O'qituvchi o'quvchilar nutqi ustida ishlash jarayonida tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lishlariga, erkin, tabiiy ohangda gapirishlariga, so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga, o'zini, qo'llarini xotirjam holda tutib turishiga alohida e'tibor berishi kerak, deb hisoblaymiz.

Bizga ma'lumki, til bilan tafakkur o'rtasida uzviy aloqa mavjud, ular bir-birisiz yashamaydi. Manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini rejali tarzda izchil kengaytirib borish zarur.

Bolalar nutqini rivojlantirish samaradorligiga erishish uchun ularning bilim darajasi, qiziqishi va shaxsiy qobiliyatini hisobga olish muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat darslikdagi mavzular bilan tanishtirish, balki sinfdan tashqari o'qish mavzularini ham asosli ravishda tanlash, eng ahamiyatli so'zlarini, ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi, ya'ni sifat tarkibi, ma'nosi bo'yicha o'rganishni ta'minlash ham dolzarbdir.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy aloqani tarbiyalashda o'qituvchi va ota-onalarning roli benihoya kattadir. Demak, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyati, avvalo, so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning vaqtli matbuot, badiiy asarlarni ko'p mutolaa qilishi; atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit; bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. -T., 2001.
2. Babayeva. D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
3. Matchonov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T.: Yangiyul poligraph service, 2008, - 224 b.
4. Matchonov S., G'ulomova X. Nutq madaniyati. // Boshlang'ich ta'lim. 2000. -№1. -8-10-b.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh., Ona tili o'qitish metodikasi. - T.: Noshir, 2009, -352 b.
6. Sariyev Sh. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida nutq o'stirish. // Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy kasbiy ta'lim muammolari: Respublika ilmiy anjumani materiallari. -Guliston: -2008,-298 b